

Xoliqov Muhammad Yusuf Abduxalil o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada olim Muhammad Ali Sobuniyning islom ilmlari rivojiga qo'shgan hissasi, olimning yozgan asarlari, tafsir asarlari hamda o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari borasida ishonchli ilmiy manbalarga tayangan holda malumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tafsir, fiqh, hadis, sofvat at-tafosir, ibn kasir.*

Shayx Muhammad Sobuniy o'zining uzoq yillik ilmiy faoliyati davomida yozgan asarlari butun islom olamida, o'quvchilar orasida keng qabul qilingan. Sobuniy asarlari dunyoning turli tillariga, jumladan, fors, turk, urdu, ingliz, rus va boshqa ko'plab tillarga tarjima qilingan. Uning turli sohalarda yozgan asarlari soni manbalarda qirqga yaqin deb keltirilgan. Sobuniy ta'lif etgan eng mashhur asarlari quyidagilar:

1. “Sunnat xazinalaridan hadisni adabiy va lingvistik o'rganish”
“من كنوز السنة، دراسة أدبية ولغوية من الحديث”
(min kunuz as-sunna, dirosatun adabiyyatun va lug'aviyyatun fil-hadis)
2. “Nubuvvat va payg'ambarlar”
“النبوة والأنبياء”
(an-nubuvva val-anbiyo)
3. “Qur'onning ahkom oyatlarini tafsir qilishda bayonning eng yaxshisi”
(ikki qismdan iborat)
“روائع البيان في تفسير آيات الأحكام من القرآن”
(Rovai'-ul bayan fi tafsiri a'yaat al-ahkom min-al-Qur'an(juz'ani)
4. “Ibn Kasir tafsiriga qisqacha sharhlar”
(uch qism)
“مختصر تفسير ابن كثير”
(Muxtasar tafsir ibn Kasir)
“Ibn Kasir tafsiriga muxtasar tafsir”
5. “المواريث في الشريعة الإسلامية في ضوء الكتاب والسنة”
(al-mavaris fish shariatil islamiyya fi-zov'il kitab vas sunna)
“Islom shariatida me'ros ilmi, sunnat va kitob asosida”
6. “الفقه الشرعي الميسر في ضوء الكتاب والسنة”
“al-fiqh ash-shar'iy al-muyassar fi zov'il kitab va sunna”
“Qur'on va sunnat asosida shar'iy oson fiqh”
7. “Qur'oni karim ilmlarini sharhlash” “at-Tibyan fi-ulum al-Qur'on”
“التبيان في علوم القرآن”

Muhammad Ali Sobuniy tafsir ilmi sohasida ham bir nechta asarlar yozgan ularning eng mashhurlari صفة التفسير “Sofvatut tafosir” (tafsirlar sarasi) shuningdek, “مختصر تفسير ابن كثير، (ثلاثة أجزاء)” “Muxtasar tafsir ibn Kasir” (ibn Kasir tafsiriga muxtasar tafsir) “روائع البيان في تفسير آيات الأحكام من القرآن (جزآن)” “Rovai’ul bayan fi ayaatil ahkam minal Qur’an” asarlari tafsir ilmiga oid eng sara asarlari hisoblanadi.

Muhammad Ali Sobuniyning (Sofvatut tafosir) nomli tafsirga oid asari ilk bor 1980-yil Bayrutdagi “Dorul qur’on karim” nashriyotida uchta jildda nashr qilingan¹. Mazkur asarning yozilish haqida asarning kirish qismida asarni yozishlikdagi uslub va me’todlari borasida batafsil ma’lumot berib o’tilgan ularni quyida bayon qilib o’tamiz:

- Birinchi: Suraning umumiy bayoni va uning asosiy maqsadlarini izohlash.
- Ikkinchi: Avvalgi va keyin keladigan oyatlar orasidagi munosabat.
- Uchinchi: Lug‘at, lug‘aviy ishtiyoq bayoni.
- To‘rtinchi: Sababun nuzul.
- Beshinchi: Tafsir.
- Oltinchi: Balog‘at.
- Yettinchi: Favoid va Latoiflar borasida².

Olimning tafsirga oid yana bir asari “Rovai’ul bayan fi-ayaatil-ahkam minal Qur’an” asari hisoblanib, mazkur asar 1980-yil Damashqdagi “Maktabatul g‘azzoliy” nashriyotida chop qilingan³. Mazkur asarning yozilish uslubi haqida asarning kirish qismida batafsil yoritilgan. Ular quyidagilar:

- Birinchi: Lug‘at ilmi olimlari hamda mufasssirlarning qavllariga suyangan holatda (oyat) lafzlarning tahlili.
- Ikkinchi: Qisqa shaklda oyatlarning umumiy ma’nosi.
- Uchinchi: Agar oyat karimaning sababi nuzuli bo‘ladigan bo‘lsa, nozil bo‘lish sababini keltirish.
- To‘rtinchi: avvalgi va keyingi oyatlarni orasini bog‘lash.
- Beshinchi: Mutavotir qiroatlar borasida bahs.
- Oltinchi: Qisqa qilib oyatning e’robi borasida bahs.
- Yettinchi: Latoif at-tafsir.
- Sakkizinchi: Shar’iy hukmlar, faqihlarning dalillari va ushbu dalillar orasini tarjeh qilish.

- To‘qqizinchi: Xotima bahsi, shar’iy hukmlarning hikmati⁴.

Olimning islom ilmlari jumladan, tafsir sohasida qilgan eng ko‘zga ko‘ringan ishlaridan yana biri ibn kasir nomi bilan mashhur bo‘lgan, “Tafsir ibn kasir” asariga yozilgan muxtasar sharhi hisoblanadi. Ibn Kasirning to‘liq ismi al-Hofiz Imodiddin Ismoil bin Amr bin Kasir, Al-Qurashiy Dimashqiy, laqabi “Abul Fida”, hijriy 700-yilda

¹ <https://ketabpedia.com> 12.14.2022.

² Muhammad Ali Sobuniy. Sofvat-ut-tafosir. – Bayrut: Dor-ul-qur’on karim, 1980. –J. 1. –S. 20.

³ Muhammad Ali Sobuniy. Rovai’-ul-bayan fi-ayaatil-ahkam min-al-Qur’an. – Damashq: Maktabat-ul-G‘azzoliy, 1980. –J. 1. –S. 1-2.

⁴ O’sha asar. –B. 11.

tugʻilgan va hijriy 774-yilda vafot etgan⁵. Ibn Kasir barcha ilmlarda, jumladan, tarix, hadis va tafsir ilmlarida dengiz misol hisoblanadi.

Imom Zahabiy u haqida quyidagi gaplarni aytgan:

Ibn Kasir fatvo beruvchi imom, mohir muhaddis, zukko faqih, kuchli mufassir, shuningdek, koʻplab asarlar muallifidir.

Uning tafsiri “Tafsirul qurʻan al-azim” hisoblanadi. Ushbu asar tafsir bil maʼsur uslubida yozilgan eng mashhur tafsir asarlaridan biri boʻlib, u Abu Jaʼfar Tabariyning (839-923) تفسير الطبري (tafsir Tobariv) dan keyingi ikkinchi muhim manba hisoblanadi. Unda muallif salaf mufassirlardan qilingan rivoyatlarga qattiq eʼtibor qaratadi⁶. Oʻzining tafsirida sanadi egalariga yetgan ishonchli dalillar va hadislarni keltirib, ularning munkariga yoki sahih boʻlmaganiga raddiyalar beradi. Shu sababli ham mufassirning ushbu asari “tafsir bil maʼsur” uslubida yozilgan tafsirlarning eng yaxshilaridan hisoblanadi.

Muhammad Ali Sobuniy ushbu tafsirga muxtasar tafsir asarini yozadi, hamda “Muxtasar tafsir Ibn Kasir” deb nomlaydi. Mazkur asar 1981-yilda Bayrutda “Dorul Qurʻon Karim” nashriyotida uchta jildda nashr qilinadi⁷. Asarni muxtasar uslubda tafsir qilganligi va muallifning tanlagan uslubi va qisqartirish yoʻli haqida muallifning oʻzi asarning kirish qismida batafsil maʼlumot berib oʻtadi. Quyida ushbu qisqartmalar bilan tanishib chiqiladi:

Mazkur tafsirni qisqartirishda quyidagi usullarga amal qilingan, uni quyida qisqacha eslatib oʻtiladi:

birinchidan, Roviylarning uzun zanjirlarini tashlab, sahobalar ichidan hadis roviysini zikr qilish bilan cheklanib, kitobning hoshiyasida hadis qaysi asardan olinganini zikr qilish bilan cheklandim. Masalan Buxoriy, Muslim va boshqalar kabi.

ikkinchidan, Muallif rahimahulloh Qurʻonni Qurʻon bilan tafsir qilishdagi yoʻliga koʻra oʻzi uni misol qilib, keltirgan oyatlar ichidan aynan misol oʻrniga tushadigan oʻrindagina keltirish, ularni toʻliq tilga olmasdan.

uchinchidan, Ibn Kasir ishora qilgan sahih hadislariga tayanish, zaiflarini tashlab ketish, naql qilingan rivoyatlardan isbotlanmagan narsalarni tark etish.

toʻrtinchidan, maʼsur uslubida tafsir qilishda eng mashhur sahobalarni zikr qilish, ulardan qilingan eng sahih rivoyatlarni keltirish masalan, Ibn Abbos, Ibn Masʼud va boshqa sahobalar. Alloh ulardan rozi boʻlsin.

beshinchidan, fikrlari toʻgʻri yetkazilgan mashhur tobeinlarning soʻzlariga tayanish va tobeinlarning barcha gaplarini ham tilga olmaslik, chunki ularning baʼzilarida boshqa rivoyatlarda boʻlgani kabi – zaiflik bor. Shuning uchun biz ularning eng sahih va eng muhimiga tayandik va biz aytib oʻtgan sabablarga koʻra qolganlarini zikr qilishimizga eʼtiborimizni qaratmadik.

⁵ Muhammad Ali Sobuniy. Muxtasar tafsir Ibn Kasir. – Bayrut: Dorul Qurʻon Karim, 1981. –J. 1. –S. 7-8.

⁶ <https://ar.m.wikipedia.org/wiki>. 19.03.2022.

⁷ Muhammad Ali Sobuniy. Muxtasar tafsir Ibn Kasir. – Bayrut: Dorul Qurʻon Karim, 1981. –J. 1. –S. 2-3.

oltinchi, isroiliyot rivoyatlarini tushurib qoldirish, bu holatda muallifning maqsadi ularga raddiya berishmi yoki ularni misol qilib ularni tanishtirish uchun keltirgan bo‘ladimi ularni tushirib qoldirish.

yettinchi, zarurat bo‘lmagan hukmlar va fiqhiy ixtiloflarni tushirib qoldirish, bulardan ortiqcha gap va cho‘zmasdan zarur bo‘lgan narsalar bilan cheklanish.

Muallifning ushbu asari ham tafsir sohasi rivojidadagi eng mo‘tabar asarlardan biri hisoblanadi. Asarda qo‘llanilgan uslub va me‘todlar asarni yanada keng ommaga yoyilishiga hamda asar o‘quvchilarini diqqat e‘tiborlariga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Muhammad Ali Sobuniy islom ilmlari jumladan, fiqh ilmida ham bir qator asarlar yozgan ularga misol qilib, “al-fiqh ash-shar‘iy al-muyassar fi zov‘il kitab va sunna” asarini keltirishimiz mumkin. Mazkur asar fiqh borasida yengil uslubda yozilgan mo‘tabar asarlardan hisoblanadi. Olim tomonidan yozilgan ushbu muyassar asar 2003-yil Bayrutdagi “Maktabatul asriyya” nashriyotida chop qilinadi⁸. Asarning kirish qismida fiqhning ahamiyati, undan olinadigan foydalar, bugungi kundagi ahamiyati kabi bir qator masalalar yoritiladi. Mazkur asar o‘n faslga ajratilgan, mavzulari tartiblanib, shu bilan alohida-alohida sarlavha ostida yoritiladi. Quyida mazkur o‘n fasl hamda ularda yoritilgan mavzular haqida haqida to‘xtalib o‘tamiz, ular quyidagilar:

birinchi fasl, pok shariatda savdo-sotiq va tijorat hukmlari.

ikkinchi fasl, savdoning to‘g‘ri bo‘lish shartlari va shar‘iy bitm siyg‘asi.

uchinchi fasl, islom shariatida harom qilingan (taqiqlangan) savdo turlari.

to‘rtinchi fasl, ihtikor (Monopoliya) va Tas‘ir (hukumat yoki biron shaxs tomonidan narxlarning belgilab qo‘yilishi) hukmlari.

beshinchi fasl, xiyor bilan savdo qilish, uning turlari va hukmlari, xiyor bilan bo‘lgan savdoda joiz bo‘ladigan va joiz bo‘lmaydigan turlari;

oltinchi fasl, oltin va kumushni almashtirish ularning hukmlari, hamda valyutalarni sotish, almashtirishga oid hukmlar.

yettinchi fasl, ribo va uning turlari, “fazl ribosi”, “ziyoda ribosi” va ular bilan bog‘liq masalalar.

sakkizinchi fasl, salam savdosi, uning sahih bo‘lish shartlari.

to‘qqizinchi fasl, ijara hukmlari, “xos ajir” va “mushtarak ajir”.

o‘ninchi fasl, kasodga uchragan, ahmoq, esipast, qarzga botgan, kishilarni hajr qilish (Muomala o‘rinlarida huquqlarini taqiqlash, to‘sis) hukmlari.

Olim Muhammad Ali Sobuniy asarlarining ba‘zilari o‘zbek tiliga ham to‘liq tarjima qilingan ulardan “al-mavaris fish-shariat al-islamiyya fi-zov‘il kitob va sunna” (Islom shariatida me‘ros ilmi Qur‘on va Sunnat asosida) me‘ros ilmi bo‘yicha yozilgan ushbu asar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan tarjima qilinib, 2022-yil nashrdan chiqarilgan.

⁸ Muhammad Ali Sobuniy. Al-fiqh ash-shar‘iy al-muyassar fi zav‘il kitab va sunna. – Bayrut: Mataba-ul-asriyya, 2003. –S. 2-3.

Mazkur asar Muhammad Sobuniyning Makka Mukarramadagi shariat va islomiy fanlar fakulteti talabalariga qilingan ma'ruzalar asosida tayyorlangan. Olimning ushbu asari o'nta ma'ruzaga ajratilgan⁹. Ushbu boblar quyidagilar:

Birinchi ma'ruza: Me'ros oyatlari va ulardagi zarur daqiq hukmlar tahlili.

Ikkinchi ma'ruza: Me'rosning ta'rifi, me'ros oluvchining shartlari, uni man qiluvchi sabablar.

Uchinchi ma'ruza: Qur'on Karimda belgilangan farz miqdori, ulush egalari va ularning me'ros olish shartlari.

To'rtinchi ma'ruza: Asabalarning turlari, uning jihatlari, har bir turning batafsil hukmi.

Beshinchi ma'ruza: Hajbning ta'rifi, uning navlari, shartlari, mushtarak masalalar bayoni.

Oltinchi ma'ruza: Bobo va uning aka-uka va opa-singillari bilan birga voris bo'lishning tafsiliy hukmlari.

Yettinchi ma'ruza: Rad va Avl hukmlari, avl bo'ladigan va bo'lmaydigan asllar hamda ularga tegishli misollar.

Sakkizinchi ma'ruza: Hisobning hukmi, masalaning aslini bilish va ularni to'g'rilash, me'ros taqsimlash usuli.

To'qqizinchi ma'ruza: Munosaxotlar va ularning ta'rifi, amaliy misollar, taxaruj masalasi.

O'ninchi ma'ruza: Zavul-Arhom belgilangan miqdor bilan ham, Asabalik bilan ham me'ros olmagan yaqinlarning me'rosi. Xunasa, Homila, yo'qolgan, cho'kkan va baxtsiz hodisada vafot etganlarning me'rosi.

Shayx Sobuniyning ushbu asarida mazkur o'n bob ichida ellikka yaqin mavzular yoritilgan bo'lib, asar olimning islom shiati bo'yicha yozgan eng mo'tabar asarlari qatoridan joy oladi.

xulosa

Olim Sobuniy shaxsiyati hozirgi zamon islom olamida alohida ahamiyatga egadir. Buni olimning hayoti davomida turli-xil islom ilmlari bilan shug'ullanib, ilmiy faoliyat yuritganida ham ko'rishimiz mumkin. Bu esa, uning serqirra olim ekanligiga dalolat beradi.

Ayniqsa, u yozib qoldirgan asarlar hozirgi davr islom dunyosida juda muhim, ilmiy asoslarga ega manbalardan hisoblanadi. Sobuniy asarlaridagi ilmiy yondashuv va tilining soddaligi ularning ahamiyatini yanada oshiradi. Shunday ekan, hozirgi davr islomshunoslik sohasida Muhammad Ali Sobuniy hayoti, ilmiy faoliyati va u yozgan asarlarni kengroq o'rganish soha faoliyati rivojida o'ziga xos dolzarblikni ifoda etadi.

FOYDALANILGAN MANBA ADABIYOTLAR RO'YHATI

⁹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom shariatida me'ros ilmi (qur'on va sunnat asosida). – T.: Hilol nashr, 2022. – B. 12.

1. Muhammad Ali Sobuniy. Sofvat at-tafosir. Bayrut: Dor al-Qur'an al-Karim, 1- jild, 1980 – 638 b.
2. Muhammad Ali Sobuniy. Rovai'ul al-bayan fi-ayaat al-ahkam min-al-Qur'an. – Damashq: maktabatul g'azzoliy, 1980. 1-jild. 627 b.
3. Muhammad Ali Sobuniy. At-Tibyan fi-ulum al-Qur'an. – Pokiston: maktaba al-bushro, 2010. – 237 b.
4. Muhammad Ali Sobuniy. At-Tibyan fi-ulum al-Qur'an. –Eron: mahaara, 2003. – 232 b.
5. Muhammad Ali Sobuniy. An-Nubuvva va Al-Anbiya. – Damashq: maktaba al-g'azaliy, 1975. – 332 b.
6. Muhammad Ali Sobuniy. Az-Zavaj al-islamiy al-mubakkir Saada va hazona. – Damashq: maktaba al-g'azaliy, 1995. – 246 b.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr Qurtubiy. Al-Ja'mi' liahkam al-Qur'an. – Bayrut: muassasa ar-risala, 2006. – 493 b.
8. Muhammad AbdulAzim Zarqoniy. Manahil al-irfon fi-ulum al-Qur'an. – Bayrut: Dor al-kutub al-g'azoliy, 1995. – 805 b.
9. Muhammad Ali Sobuniy. Muxtasar tafsir ibn Kasir. – Bayrut: Dor al-Qur'an al-Karim, 1981. 1-jild. 645 b.
10. Muhammad Ali Sobuniy. Min kunuz as-sunna dirosa adabiyya va lug'aviyya min al-hadis ash-sharif. –Bayrut: Dor al-qalam, 1989. – 208 b